

Bektoshev G'iyos Saxriddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi

1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi mansablarning turlari va vazifalari hamda unvonlarning berilish tartibi keng tartibda yoritilgan. Maqoladagi ma'lumotlar tarixiy manbalar asosida shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Shodmon Vohidov, Bahodir Eshov, Jo'ybor xo'jalari, qo'shbegi, to'rt hokim, mir poyon, sadr, diniy unvonlar, naqiblar

Аннотация: В этой статье подробно рассматриваются типы и обязанности должностей в Бухарском эмирате, а также порядок присвоения титулов. Информация в статье формируется на основе исторических источников.

Ключевые слова: Шодмон Вахидов, Бахадур эшов, Ходжи джойбор, кошбеги, четыре хокима, мир пойон, кедр, религиозные титулы, накибы

Annotation: This article covers the types and duties of positions in the emirate of Bukhara and the procedure for awarding titles in a broad order. The information in the article is formed on the basis of historical sources.

Keywords: Shodman Vohidov, Bahadir Eshov, Joybor farms, khoshbegi, four governors, mir poyon, Cedar, religious titles, Naqib.

KIRISH

Avvalo, ta'kidlash lozimki, manbalar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan unvon, mansablarga oid ma'lumotlar juda chalkash, ko'p hollarda bir-birini inkor etadi. So'nggi yillarda Shodmon Vohidov va Rahbar Xoliqovlar o'z tadqiqotlarida ushbu masalalarga aniqlik kiritishga harakat qilganlar.[1] Buxoro amirligida amir davlatni mansabdor shaxslar, ya'ni amir xizmatchilari orqali boshqarar edi. Ushbu mansabdor shaxslar davlatning boshqaruv apparatini tashkil

etgan. Buxoro amirlari o'z shajaralarini Muhammad payg'ambardan boshlaganliklari sababli ularning unvonlariga sayid so'zi qo'shib aytilgan. Yana shuni aytib o'tish joizki, Buxoro amirligida mavjud bo'lgan mansab va unvonlar soni juda ko'p va xilma-xil bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixchi olimlar Shodmon Vohidov va Rahbar Xoliqovlarning qayd etishicha, Mirzo Badi Devon o'zining "Majma ul-arqom" asarining oxirida Buxoro amirligidagi unvon va mansablar haqida eng mufassal ma'lumot bergan. Mazkur asar 1798-yili yozilgan bo'lib, unda keltirilgan unvon va mansablar haqidagi amallar amirlikning oxirgi kunlarigacha ba'zi o'zgarishlar bilan mavjud edi. Shuningdek, Akbar Zamonov va Alisher Egamberdiyevning "Buxoro amirligi tarixi" asarida ham Buxoro amirligidagi mansablarning tayinlanishi hamda ularning vazifalari va unvonlar haqida batafsil yoritib o'tilgan. Shu bilan birga, Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi Nofei" asari Buxoro amirligidagi mansablar haqida qisqacha berilib o'tilgan.[2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bahodir Eshovning "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" asarida keltirilishicha, Buxoro amirligidagi eng yuqoro unvon va mansablar, avvalo mang'it urug'i vakillariga, sayyidlarga, xo'jalarga hamda ulamolarga berilgan bo'lib, davlatdagi eng yuqori unvon amir ul-umaro, otaliq, hokim (valiy, bek), qo'shbegi va devonbegilar bo'lgan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Oltin O'rda davlatida joriy etilgan otaliq unvoni mang'itlar davriga kelib otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma'muriy ishlarda asosiy vakilga aylandi. Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (rud-i shahr) va dorug'alik vazifasi yuklandi. Bu davrda qo'shbegi yoki qo'shbegiyi bolo eng oliy saroy mansabi hisoblanib uning mavqei juda baland bo'lgan. Amalda bosh vazir vazifasini bajargan bu mansab egasi iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar bo'yicha amirning eng yaqin odami bo'lgan. Saroydagi oliy mansablardan yana

biri devonbegi bo'lib bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo'lgan. Devonbegi moliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yig'ish ustidan to'la nazorat qilish ishlariga javob bergan. Mang'itlar davrida Buxoroda qo'shbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi birgalikda "chor hokim", yani "to'rt hokim" deb yuritilgan.[3]

Amirning ikkinchi vaziri qo'shbegi poyon ba'zi manbalarda mir poyon deb atalgan bo'lib unga yasovulboshi, miroxo'rboshi, xazinachi, mirzalar, bakovulboshi, zakotchilar bo'ysungan. Mir poyon ularni o'z nazoratiga olib turgan.

Akbar Zamonov va Alisher Egamberdiyevning "Buxoro amirligi tarixi" asarida amirlikda rasman uchta diniy unvon – o'rog', sudur va sadr mavjud ekanligini keltirib o'tgan. Manbalarga ko'ra, madrasani tugatgan shaxs mulla, qozi, rais amallarini egallashi mumkin bo'lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlaganidan so'ng shariat huquqlari sohasida to'plangan bilim va tajribalari asosida bunday shaxslarga dastlab o'rog', keyin sudur va so'ngra sadr unvonlari berilgan. Eng oxirgi diniy unvoni bo'lgan shaxslar qozikalon, muftiy, a'lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo'lgan.[4]

Amirlikda shuningdek yana to'rt mansab mavjud bo'lganki, ularni amir bevosita sayidlik obro'-etiboriga ega bo'lganlarga in'om etgan.

Birinchisi Jo'ybor xo'jalari- ularga Jo'ybor hududini, shahar devorining ichki va tashqi tomonini boshqarish masalasi yuklatilgan.

Ikkinchisi Naqib- harbiy yurishlar paytida qo'shinning jangovar tayyorgarligi, ta'minlanganligi va taqsimotini nazorat qiluvchi mansabdor.

Uchinchisi Bosh o'rog'- shariatga asosan sayyidlar qo'shinida muhtasib vazifasini amalga oshiruvchi shaxs.

To'rtinchisi Naqshbandiy- unga amirlar dafn etiladigan qabristonni ko'klamzorlashtirish ishlarini boshqarish topshirilgan.[5]

Shuningdek, bu asarda Buxoro amirligidagi mansablar bir nechta turlarga bo'lingan. Demak, birinchi guruhga Amirning kundalik ish yuritish bilan mashg'ul bo'lgan mansablar: parvonachi va dodhoh, Amirning yaqinlariga beriladigan amal va mansablar: ko'kaldosh, katta qo'shbegi, katta inoq va katta xoja, Amir amri

bilan otda saroyga kelishlari mumkin bo'lgan amal va mansablar: kichik inoq, katta mehtar, devoni sarkor va dasturxonchi, Amir xohishiga muvofiq ba'zan uning suhbatiga musharraf bo'lishlari mumkin bo'lganlar: katta to'pchiboshi, katta bakovul va kichik o'rog'. [6]

Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi Nofeiyy" asarida qo'shbegiga taalluqli bo'lgan amaldorlar haqida ham qisqacha ma'lumotlar berib o'tgan. Qo'shbegi xizmatida shogirdpeshalar turgan. Ular miroxur va to'qsabo mansablarigacha ko'tarilganlar. Bu jamoa josuslik, elchilik, xususiy qorovullikka o'xshash ishlarni bajarganlar. Qo'shbegining bu amaldorlari biy yoki dodxoh mansabiga yoki boshqa mansabga ega bo'lsalar, ularni miri dasta, amiri no'kariya yoki sarkarda deb ataganlar. [7]

Bahodir Eshov va To'lqin Xudoyqulovning "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi (Xonliklar davri)" asarida Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud bo'lganligini takidlab o'tilgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig'ovul, amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi tongotar (tunqator), amirga qaratilgan salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi javobgar salom og'asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi kabilar shular jumlasidan. Amirga bo'lgan sadoqati va xizmati uchun alohida shaxslar dodhoh, inoq, to'qsabo, otaliq, eshikog'asi kabi unvonlarga ega bo'lganlar.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Buxoro amirligida mavjud bo'lgan mansablarning va unvonlarning davlat boshqaruvidagi o'rinni beqiyos bo'lgan. Amirlikda oliy hukmdor o'z hokimiyatini maxsus amaldorlar va xizmatchilari orqali amalga oshirgan. Adabiyotlarni solishtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, amirlikdagi mansablarning darajasi va mavqei turli hukmdorlar davrida turlicha bo'lgan, qaysidir hukmdor davrida ma'lum lavozimlar ko'tarilgan yoki tushgan. Hozirgi davrdan farq qilgan holatda, o'sha davrda amirlikdagi barcha mansab va unvonlar shaxsan amir tomonidan tayinlangan. Kelajakda O'zbekiston

hududlarida shakllangan davlatlarning tarixini, ularda joriy etilgan boshqaruv tizimini, amallar, unvon va mansablarning o'rganilishi ham juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Eshov “O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi” - Toshkent - 2012
2. Akbar Zamonov va Alisher Egamberdiyev “Buxoro amirligi tarixi” – “Tamaddun” nashriyoti, Toshkent – 2022
3. Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi Nofei” – “Akademiya” nashriyoti Toshkent – 2001
4. Bahodir Eshov va To'lqin Xudoyqulov “O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi (Xonliklar davri)” – “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU Toshkent – 2023
5. Vohidov Sh. “Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar” – Toshkent: Fan, 1996
6. Amir Olimxon “Buxoro xalqining hasrati tarixi” – Toshkent: Fan, 1991
7. Sh.Vohidov va R.Xoliqova “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan” -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006